



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-may



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may)

Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlik
ulushi – **58,8 %**



Aholi jon boshiga
xizmatlar hajmi –
4 054,0
ming so'm




Xizmatlar
sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi – **68,9 %**



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-iyun holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-may)




Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-iyun holatiga ko'ra)

Soni, birlikda



2024

17 208

2023

17 056

2022

17 312

2021

15 579

2020

12 537

Soni, birlikda

2024

1 151

2023

1 745

2022

1 272

2021

1 438

2020

1 036

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-may)

2024


54,6%

53,5%


2020

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-may)



¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq, qayta ko'rib chiqilgan


Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may)

Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Buxoro viloyati¹⁾	8 299,8	100,0	108,7
tumanlar:			
Olot	256,7	3,1	107,9
Buxoro	412,3	5,0	108,8
Vobkent	612,7	7,4	129,9
G'ijduvon	968,7	11,7	108,1
Kogon	265,4	3,2	102,1
Qorako'l	348,6	4,2	107,8
Qorovulbozor	148,3	1,8	105,4
Peshku	435,0	5,2	108,2
Romitan	432,2	5,2	106,4
Jondor	438,6	5,3	107,9
Shofirkon	358,5	4,3	107,5
shaharlar:			
Buxoro sh.	3 320,4	40,0	107,5
Kogon sh.	302,4	3,6	105,3

¹ shahar va tumanar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-may)


Shahar va tuman nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Buxoro shahri	11 244,0	105,5%
Qorovulbozor	7 450,2	103,8%
Kogon shahri	4 666,2	103,7%
Vobkent	4 114,8	127,5%
Peshku	3 313,3	106,4%
Kogon	3 129,4	99,7%
G'ijduvon	2 999,0	106,4%
Romitan	2 853,1	104,8%
Olot	2 456,8	106,3%
Jondor	2 360,6	106,0%
Buxoro	2 306,0	106,6%
Qorako'l	2 025,8	106,4%
Shofirkon	1 921,3	106,3%

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-may)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **58,8** foizni, shu jumladan, **19,3** foizni kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-may)



Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-may)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	8 299,8	100,0	108,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	359,3	4,3	115,5
Moliyaviy xizmatlar	1 784,8	21,5	102,4
Transport xizmatlari	1 663,7	20,1	106,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 505,6	18,1	108,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	381,7	4,6	110,1
Savdo xizmatlari	2 329,6	28,1	112,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	159,8	1,9	105,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	514,3	6,2	123,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	169,3	2,0	107,6
Ijara xizmatlari	176,4	2,1	102,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	191,2	2,3	111,5
Shaxsiy xizmatlar	212,3	2,6	109,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	66,8	0,8	100,7
Boshqa xizmatlar	290,6	3,5	107,0


Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **90,5** foiz.

Buxoro shahrida transport xizmatlari hajmi **413,6** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur shaharda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,8** foizni tashkil etgan.


Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari


(2024- yil yanvar-may)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-may) ¹⁾

2024- yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 505,6** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **18,1 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-may)	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi (kamayishi)
Buxoro shahri	293,4	+14,1%
G'ijduvon	270,0	+9,3%
Jondor	136,9	+7,8%
Romitan	106,1	+3,3%
Kogon shahri	103,5	+0,5%
Peshku	92,9	+7,1%
Buxoro	92,7	+8,1%
Shofirkon	89,8	+9,6%
Vobkent	89,5	+7,4%
Qorako'l	70,3	+6,6%
Olot	67,2	+6,8%
Kogon	55,1	+10,2%
Qorovulbozor	38,2	-1,5%




2024- yil yanvar-may oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **1,1** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **32,0 %**.

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may)



■ Hajmi, mlrd so'mda

■ O'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar


(2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)

Buxoro shahri	1 161,8
G'ijduvon	119,3
Romitan	86,9
Jondor	70,0
Buxoro	63,1
Shofirkon	58,7
Qorako'l	54,1
Peshku	50,7
Vobkent	47,7
Kogon shahri	30,9
Olot	25,3
Qorovulbozor	15,6
Kogon	0,7

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2024- yil yanvar-may)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024- yil yanvar-mayda 92,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **65,1** foizni yoki **1161,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-may oylariga nisbatan Qorako'l tumanida yuqori o'sish sur'ati **110,9** foizni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-may oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **66,2** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-may)



Shahar va tumanlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi (kamayishi)
Buxoro shahri	13 581,7	+9,1%
Vobkent	3 708,6	+53,5%
G'ijduvon	2 882,7	+6,0%
Peshku	2 729,6	+9,1%
Buxoro	2 360,3	+8,2%
Kogon	2 165,3	-4,2%
Jondor	2 097,7	+11,1%
Romitan	2 039,0	+8,0%
Shofirkon	1 969,9	+7,9%
Qorako'l	1 270,9	+6,9%
Olot	1 202,1	+7,3%
Kogon shahri	1 021,8	+3,2%
Qorovulbozor	978,0	+6,4%

¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi (kamayishi)


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-may** oylaridagi ulushi **91,0 %** ni tashkil etdi.

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-may)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **80,6** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)

Buxoro shahri	446,8
Qorako'l	11,0
Kogon	10,4
G'ijduvon	8,6
Buxoro	6,4
Jondor	6,1
Romitan	5,0
Shofirkon	4,6
Peshku	4,1
Kogon shahri	3,8
Vobkent	3,3
Olot	2,5
Qorovulbozor	1,7

Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Buxoro shahriga to'g'ri keladi. **2020- yilning yanvar-may** oylariga nisbatan mazkur shaharda ushbu xizmat turi hajmi **308,9** mlrd so'mga oshdi va ko'rib chiqilayotgan davrda **446,8** mlrd so'mga yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **86,9** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-may** oylaridagi ulushi **43,7** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **40,3** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **15,7** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)




Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-may)

Shahar/Tuman	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi
Buxoro shahri	102,9	+7,3%
G'ijduvon	15,1	+10,9%
Buxoro	9,4	+7,9%
Kogon shahri	6,9	+4,2%
Qorako'l	6,1	+7,0%
Jondor	5,3	+7,7%
Peshku	4,9	+9,8%
Vobkent	4,1	+13,5%
Shofirkon	3,8	+4,4%
Romitan	3,8	+8,1%
Olot	3,4	+6,8%
Kogon	2,7	+5,7%
Qorovulbozor	0,9	+8,1%


Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **95,2** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024- yil yanvar-may)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

 Hajmi, mlrd so'mda


 O'sishi

2024- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning jami xizmatlar hajmidagi ulushi **4,6 %** ni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **78,7 foiz**.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-may)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-may)




¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-may, mlrd so'mda)



2024- yil yanvar-may oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **8,9** mlrd so'mga yetdi.



Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)




Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Buxoro shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **50,6** foiz yoki **4,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

Kogon shahri bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **0,1** mlrd so'm darajasida qayd etildi.

Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may, so'mda)

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2024- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalterlik xizmatlari hajmi **2 894,6** so'mga oshib, **4 337,8** so'mni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-may, so'mda)



2024- yil yanvar-may oylarida Buxoro shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **15 177,1** so'mga yetdi. Shuning-dek, Peshku (**11 308,5** so'm) va Qorovulbozor (**6 621,2** so'm) tumanlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi.

Shofirkon tumanida esa bu ko'rsatkich o'rtacha **395,8** so'mni tashkil etdi.

Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-may, mlrd so'mda)



2024- yil yanvar-may oylarida yuridik xizmatlarning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **62,9 %** yoki **5,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida yuridik xizmatlar

2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)




Shahar va tumanlar orasida ushbu xizmat turiga Buxoro shahrida talab yuqori. Ushbu shaharda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3,7** mlrd so'mga yetdi yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **66,1** foizini tashkil etdi.

Eng ko'p yuridik xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni mazkur shaharda mavjuddir.

Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi


(yanvar-may, so'mda)

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2024- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **1 727,4** so'mga oshdi va o'rtacha **2 757,4** so'mni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar


(2024- yil yanvar-may, so'mda)



2024- yilning yanvar-may oylarida Buxoro shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **12 833,3** so'mga yetdi. Shu bilan birga, Qorovulbozor (**6 621,1** so'm) va Buxoro (**2 014,5** so'm) tumanlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Peshku tumanida esa yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **150,9** so'mni tashkil etdi.


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-may)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **31,6** foizini tashkil etadi.


Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-may)



¹⁾ shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-may)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-may, mlrd so'mda)



2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **30,3** mlrd so'mga oshib, **66,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **82,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: 65-223-79-41